

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 451 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B. Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ АЛМГСІ ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otayor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va institutsional xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda bank kreditlari, investitsion moliyalashtirish, lizing, sindikatlashgan kreditlar va loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining o'ri yoritiladi. Shuningdek, aloqa sohasining yuqori kapital sig'imliligi, uzoq muddatli investitsion sikli hamda texnologik yangilanishlar bilan bog'liq risk omillari banklar kredit siyosatiga ta'sir etuvchi muhim jihatlari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda moliyalashtirish jarayonining samaradorligini oshirish, resurs bazasini diversifikatsiya qilish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aloqa sohasi, telekommunikatsiya infratuzilmasi, kreditlash, investitsion moliyalashtirish, loyihaviy moliyalashtirish, bank risklari, kapital sig'imi, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy vositalar.

Abstract. this article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, economic essence, and institutional features of financing the telecommunication sector by commercial banks. In the context of the digital economy, the role of bank lending, investment financing, leasing, syndicated loans, and project financing mechanisms in the development of telecommunication infrastructure is examined. Furthermore, the specific characteristics of the telecommunication sector, including high capital intensity, long-term investment cycles, and risks associated with technological modernization, are considered as key factors influencing banks' credit policies. The study formulates theoretical conclusions aimed at improving the efficiency of the financing process, diversifying the resource base, and enhancing risk management mechanisms.

Keywords: commercial banks, telecommunication sector, telecommunication infrastructure, lending, investment financing, project financing, banking risks, capital intensity, digital economy, financial instruments.

Аннотация. в данной статье комплексно анализируются теоретические основы, экономическая сущность и институциональные особенности финансирования сферы связи коммерческими банками. В условиях цифровой экономики раскрывается роль банковских кредитов, инвестиционного финансирования, лизинга, синдицированных кредитов и механизмов проектного финансирования в развитии телекоммуникационной инфраструктуры. Кроме того, такие специфические характеристики отрасли связи, как высокая капиталоемкость, длительный инвестиционный цикл и риски, связанные с технологическим обновлением, рассматриваются как ключевые факторы, влияющие на кредитную политику банков. В исследовании сформулированы теоретические выводы, направленные на повышение эффективности процесса финансирования, диверсификацию ресурсной базы и совершенствование механизмов управления рисками.

Ключевые слова: коммерческие банки, сфера связи, телекоммуникационная инфраструктура, кредитование, инвестиционное финансирование, проектное финансирование, банковские риски, капиталоемкость, цифровая экономика, финансовые инструменты.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida aloqa sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat axborot almashinuvi tezligi va sifatini oshiradi, balki sanoat, xizmat ko'rsatish, moliya, ta'lim hamda davlat boshqaruvi tizimlarining samaradorligini ham belgilab beradi. Shu bois aloqa sohasining barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlash masalasi investitsion resurslar bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur jarayonda tijorat banklari muhim moliyaviy institut sifatida faol ishtirok etadi.

Aloqa sohasi o'zining yuqori kapital sig'imligi, infratuzilmaviy yo'nalganligi hamda uzoq muddatli investitsion davri bilan boshqa tarmoqlardan ajralib turadi. Telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, keng polosali internet, mobil aloqa, optik tolali liniyalar va raqamli platformalarni joriy etish katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab etadi. Bunday sharoitda tijorat banklari tomonidan kreditlash, investitsion moliyalashtirish, lizing operatsiyalari, sindikatlashgan kreditlar hamda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, aloqa sohasining texnologik yangilanish sur'atlari yuqoriligi, bozordagi raqobatning kuchayishi hamda investitsiyalarning uzoq muddatli qaytuvchanligi banklar uchun kredit risklari, likvidlik risklari va foiz risklarini kuchaytiradi. Bu esa tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish jarayonida risklarni baholash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda samarali kredit siyosatini ishlab chiqishni talab etadi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda minglab iqtidorli yoshlarimiz IT va sun'iy intellekt bo'yicha izlanish olib bormoqda. Ularning kvant, dron, robototexnika kabi yo'nalishlardagi konstruktorlik loyihalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun Raqamli texnologiyalar markazi tashkil etiladi. Osiyo taraqqiyot banki buni qo'llab-quvvatlab, 200 million dollar ajratishga tayyorligini bildirdi. Sun'iy intellekt bilan yonma-yon yuradigan kosmik sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish, yo'ldoshli aloqa texnologiyalarini joriy etish borasida ham katta qadamlar tashladik. Bu borada 2028-yilda Samarqandda Xalqaro astronomiya kongressini o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz." [1]

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, ushbu jarayonda tijorat banklarining nazariy asoslangan va tizimli yondashuv asosida ishtirok etishi zarur. Shu nuqtai nazardan, maqolada tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning nazariy jihatlarini, uning iqtisodiy mohiyati hamda institutsional mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining aloqa infratuzilmasini moliyalashtirishda qo'llaydigan asosiy instrumentlar - bank kreditlari (komerciyal va sindikatlashgan), lizing operatsiyalari, obligatsiyalar emissiyasi va loyihaviy («non-recourse»/«limited-recourse») moliyalashtirishdir. Shuningdek, xususiy sektor investitsiyalarini jalb etishda xalqaro moliya institutlari bilan birgalikdagi kofinansirovka (blended finance) va eksport kredit agentliklari faoliyati ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillar hisobotlari infratuzilma loyihalariga xos «de-risking» mexanizmlarining (kafolatlar, sug'urtalar, strukturaviy garovlar) kengayganini qayd etadi.[2]

E. R. Yescombe loyiha moliyalashtirishni infratuzilma va kapitalli tarmoqlarni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, telekommunikatsiya kabi yuqori kapital sig'imli tarmoqlarda banklar kreditni qarz oluvchining umumiy balansiga emas, balki loyiha generatsiya qiladigan pul oqimlariga asoslab baholaydi. Bu yondashuv risklarni taqsimlash va kreditni strukturaviy jihatdan himoyalash imkonini beradi. [3]

Shuningdek, S. Gatti banklarning loyiha moliyalashtirishdagi rolini chuqur tahlil qilib, kredit riskini kamaytirishda sindikatlashgan kreditlar va kafolat mexanizmlarining ahamiyatini asoslab beradi. Uning ta'kidlashicha, telekommunikatsiya loyihalarida texnologik risk va talab riskini puxta baholash bank qarorlarining markaziy elementi hisoblanadi. [4]

F. Modigliani va M. Miller kapital tuzilmasi nazariyasida korxona qiymati moliyalashtirish manbalaridan mustaqil ekanligini ilgari surgan bo'lsalar-da, real bozor sharoitida soliq va tranzaksion xarajatlar mavjudligi qarz va o'z mablag'lari nisbatining ahamiyatini oshiradi. Shu bois, aloqa sohasi korxonalari yuqori qarz yuklamasiga ega bo'lishi mumkin, bu esa tijorat banklari uchun kredit riskini oshiradi.[5]

Brealey, Myers va Allenlar esa korporativ moliya nazariyasida uzoq muddatli investitsiyalarni baholashda NPV, IRR va diskontlash metodlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu metodlar banklar tomonidan telekommunikatsiya loyihalarini moliyalashtirishda keng qo'llaniladi.[6]

Professor B.Rasulov raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining transformatsiyasi va moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi masalalarini o'rganib, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish moliyaviy



xizmatlar bozorini kengaytirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, aloqa sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar bank xizmatlarining raqamli shakllarini rivojlantirishga ham turtki beradi.[7]

A.Teshaboyev "tijorat banklarining investitsion kreditlash mexanizmlarini o'rgangan holda, telekommunikatsiya kabi yuqori kapital sig'imli tarmoqlarda sindikatlashgan kreditlash va davlat kafolatlaridan foydalanish bank risklarini kamaytirishini asoslab beradi".[8]

M. Iskandarov esa "moliyaviy vositachilikning samaradorligini o'rganib, telekommunikatsiya infratuzilmasini moliyalashtirishda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash instrumentlarini diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi".[9]

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki: aloqa sohasini moliyalashtirishda tijorat banklari asosiy moliyaviy institut sifatida ishtirok etadi; uzoq muddatli va kapital sig'imli loyihalar uchun risk-menejment va sindikatlashgan kreditlash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi; raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi; davlat-xususiy sheriklik modeli bank kreditlarining samaradorligini oshiruvchi institutsional vosita hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda raqamli infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tarmoqlarining o'sish sur'atlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahonda "2025-yil boshiga kelib 5,64 milliard kishi internetdan faol foydalanayotgani, bu esa global aholi sonining 68,7 foiziga tengligi, raqamli iqtisodiyotning chuqur va barqaror integratsiyasini yaqqol namoyon etmoqda"[10]. Mazkur ko'rsatkich internetdan foydalanish infratuzilmasi, optik tarmoqlar, mobil aloqa stansiyalari, ma'lumotlar markazlari va bulutli texnologiyalar, global ishlab chiqarish va moliyaviy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda tijorat banklari nafaqat kredit vositachilari, balki raqamli iqtisodiyotning investitsion ishtirokchilari sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Aloqa tarmog'ining texnologik yangilanishi - 5G, IoT (Internet of Things), ma'lumotlar almashinuvi platformalari va raqamli to'lov tizimlari katta hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli, telekommunikatsiya sektorining kreditlash jarayonini samarali tashkil etish, risklarni boshqarish va kredit portfellarini diversifikatsiya qilish tijorat banklari uchun dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning nazariy jihatlar doirasida, avvalo, bank kreditning iqtisodiy mohiyati, investitsion loyihalarni baholash mexanizmlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish modellari o'rganiladi. Aloqa tarmog'i korxonalarini kreditlash jarayoni yuqori kapital sig'imi, uzoq qaytarim muddati va texnologik risklarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan risklarni diversifikatsiya qilish, loyiha moliyalashtirish (project finance) mexanizmlaridan foydalanish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellari qo'llash hamda kredit portfelini tarmoqlar kesimida muvozanatlash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aloqa sohasini moliyalashtirish jarayonida kredit resurslarining manbalari, foiz siyosati, garov ta'minoti, pul oqimlari prognozi va investitsiya samaradorligini baholash mezonlari alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Banklar tomonidan ushbu sohani moliyalashtirish mexanizmlari innovatsion rivojlanish, iqtisodiy o'sish va raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashning muhim institutsional omili sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning nazariy asoslari bank kapitali va real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirish, infratuzilmaviy loyihalarni barqaror moliyaviy ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiluvchi kompleks mexanizm sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida aloqa korxonalari moliyaviy faoliyatini rivojlantirib borishning shunday modeli yaratilishi lozimki, u nafaqat aloqa korxonalari moliyasini sog'lomlashtirishni va uning asoslarini mustahkamlashni, balki shu bilan birga istiqbolda korxonaning raqobat ustunliklarini mustahkamlashni hamda uning bozor qiymatini ham oshirishni ta'minlasin. Mazkur jarayonda aloqa korxonalari moliyaviy faoliyatini baholash va tahlil qilishning nazariy asoslarini o'rganishda quyida jarayonlarga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Aloqa korxonalari moliyaviy faoliyatini baholash va tahlil qilishning nazariy jihatlar¹

Bizning fikrimizcha, "Aloqa korxonalari moliyasi" tushunchasini tor va keng ma'noda ifodalash mumkin. Tor ma'noda aloqa korxonalari moliyasi alohida olingan korxona moliyaviy munosabatlaridan iborat. Bu ma'noda "aloqa korxonalari moliyaviy munosabatlari" tushunchasi "korxonalar moliyaviy munosabatlari" tushunchasi bilan bir xil mazmunni ifodalaydi.

Keng ma'noda "Aloqa korxonalari moliyaviy munosabatlari" tushunchasi iqtisodiyotning aloqa tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan korxonalarning moliyaviy faoliyatini ifodalaydi. Mazkur tushunchaning keng ma'nosi uni tor ma'noda tushunishni to'la tarzda o'z ichiga oladi. "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi O'zbekiston Respublikasining yetakchi telekommunikatsiya operatori sifatida milliy aloqa infratuzilmasining asosiy subyekti hisoblanadi. Kompaniya respublika hududining deyarli barcha qismini qamrab oluvchi keng tarmoqli infratuzilmaga ega bo'lib, magistral va hududiy optik tolali aloqa liniyalari, mobil va statsionar aloqa segmentlari, ma'lumotlar uzatish markazlari hamda xalqaro telekommunikatsiya kanallarini o'z ichiga oladi. Ilmiy-analitik nuqtayi nazardan, kompaniyaning faoliyati milliy raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda tayanch institut sifatida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda texnologik modernizatsiya jarayonlari doirasida tarmoqning asosiy elementlari yangilandi, yuqori tezlikdagi keng polosali internet xizmatlari qamrovi kengaytirildi hamda ma'lumotlar uzatish sig'imi sezilarli darajada oshirildi. Bu esa raqamli xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishiga institutsional asos yaratmoqda. Kompaniyaning tarmoq infratuzilmasi xalqaro integratsiyalashuv darajasi bilan ham ajralib turadi. "O'zbektelekom" qo'shni davlatlarning aloqa operatorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri xalqaro ulanish imkoniyatiga ega bo'lib, xalqaro telekommunikatsiya kompaniyalari bilan hamkorlik asosida tranzit trafikni uzatish va turli sig'imdagi xalqaro raqamli kanallarni ijaraga berish xizmatlarini amalga oshiradi. Mazkur faoliyat turi mintaqaviy telekommunikatsiya bozorida O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kompaniya telekommunikatsiya sohasidagi mintaqaviy va xalqaro institutlar bilan hamkorlik qiladi hamda Mintaqaviy Hamdo'stlik davlatlari telekommunikatsiya operatorlari kengashi faoliyatida ishtirok etadi. Bu esa sohada yagona texnik standartlarni joriy etish, tajriba almashish va integratsion jarayonlarni chuqurlashtirishda muhim omil hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. "O'zbektelekom" AK faoliyatining daromadlari dinamikasi²

T/r	Ko'rsatkichlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
1	Asosiy faoliyatdan olingan daromad	4505677	5620437	6735197	7849957	8964717
2	Boshqa daromadlar	297815	264865	231915	198965	166015
3	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	185258	256123	301425	367437	1065883
Jami		3075587	4855844	6636101	8416358	10196615

¹ Muallif ishlanmasi

² <https://uztelecom.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomondan tuzildi



Mazkur jadval ma'lumotlari kompaniya daromadlarining tarkibiy tuzilmasi va o'sish tendensiyalarini aks ettiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar oralig'ida "O'zbektelekom" AKning umumiy daromadlari barqaror o'sish dinamikasiga ega bo'lgan. Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar 2020-yildagi 4 505 677 mlrd. so'mdan 2024-yilda 8 964 717 mlrd. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich qariyb ikki baravarga oshganini anglatadi. Ushbu o'sish kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlari (internet, mobil aloqa, ma'lumot uzatish, keng polosali xizmatlar) hajmining kengaygani va abonentlar bazasining ortgani bilan izohlanadi. Shuningdek, tarif siyosati va xizmatlar diversifikatsiyasi ham daromad o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Boshqa daromadlar esa tahlil qilinayotgan davrda izchil kamayish tendensiyasini ko'rsatgan: 2020-yildagi 297 815 mlrd. so'mdan 2024-yilda 166 015 mlrd. so'mga tushgan. Bu holat kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlarga konsentratsiyalashuvi va nomutaxassis (asosiy bo'lmagan) faoliyat turlarining qisqarishi bilan izohlanishi mumkin. Natijada daromadlar tarkibida asosiy operatsion tushumlarning ulushi oshgan.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar 2020-2023-yillarda bosqichma-bosqich o'sib borgan (185 258 mlrd. so'mdan 367 437 mlrd. so'mga), 2024-yilda esa keskin oshib, 1 065 883 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bunday o'sish moliyaviy aktivlardan olinadigan daromadlar, investitsion loyihalar samaradorligi yoki valyuta operatsiyalari natijasida yuzaga kelgan ijobiy farqlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu omil kompaniya moliyaviy barqarorligining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Jami daromadlar 2020-yildagi 3 075 587 mlrd. so'mdan 2024-yilda 10 196 615 mlrd. so'mga yetgan. Umumiy ko'rsatkichning o'sishi asosan asosiy faoliyat daromadlari hisobiga ta'minlangan. Bu esa kompaniyaning operatsion samaradorligi va telekommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan bozor talabining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, "O'zbektelekom" AK daromadlarining o'sishi barqaror va strukturaviy jihatdan asosiy faoliyatga tayangan holda shakllanmoqda. Moliyaviy daromadlarning 2024-yildagi keskin oshishi kompaniyaning investitsion va moliyaviy boshqaruv siyosati samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, daromadlar tarkibida asosiy faoliyat ulushining ortishi kompaniyaning strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratayotganini va telekommunikatsiya bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlayotganini anglatadi (2-jadval).

2-jadval. Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni³

Yil	Korxona va tashkilotlar soni	O'sish (kamayish), %
2021	9 517	+20,5
2022	10 587	+11,2
2023	12 204	+15,3
2024	10 551	-13,5
2025	9 777	-7,3

Mazkur 2-jadval axborot va aloqa sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining besh yillik dinamikasini hamda ularning yillik o'sish (kamayish) sur'atlarini aks ettiradi. Tahlil natijalari sohaga xos rivojlanish bosqichlarining almashinuvini ko'rsatadi. 2021-2023-yillar davomida sohada barqaror ijobiy o'sish kuzatilgan. 2021-yilda korxonalar soni 9 517 tani tashkil etib, 20,5 foizlik yuqori o'sish qayd etilgan. 2022-yilda ko'rsatkich 10 587 taga yetib, 11,2 foizga oshgan. 2023-yilda esa 12 204 ta korxona bilan eng yuqori nuqta qayd etilib, 15,3 foizlik o'sish ta'minlangan. Mazkur davrda raqamli iqtisodiyotning kengayishi, IT-xizmatlarga talabning ortishi, davlat tomonidan raqamlashtirish siyosatining faollashuvi hamda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirib kelishiga turtki bo'lgan. Bu bosqichni ekstensiv o'sish davri sifatida baholash mumkin. 2024-yildan boshlab tarmoqda salbiy o'sish tendensiyasi kuzatiladi: 2024-yilda korxonalar soni 10 551 taga tushib, 13,5 foizlik kamayish qayd etilgan. 2025-yilda pasayish davom etib, ko'rsatkich 9 777 tani tashkil etgan va 7,3 foizga qisqargan. Ushbu jarayon bozorning konsolidatsiyasi, raqobatning kuchayishi, kichik va moliyaviy barqarorligi past subyektlarning faoliyatini to'xtatishi yoki yirik kompaniyalar bilan integratsiyalashuvi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, kapital sig'iminining ortishi va texnologik talablarning kuchayishi ham kichik korxonalar uchun kirish to'siqlarini oshirgan bo'lishi ehtimol.

Umuman olganda, 2021-2023-yillarda sohada jadal o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2024-2025-yillarda tarkibiy muvozanatlashuv jarayoni yuzaga kelgan. Bu holat axborot va aloqa sohasining miqdoriy o'sish bosqichidan sifat jihatidan takomillashuv va samaradorlikni oshirish bosqichiga o'tayotganini anglatadi.

Natijada, sohadagi subyektlar sonining qisqarishi salbiy omil sifatida emas, balki bozor mexanizmlarining tabiiy seleksiyasi va raqobatbardosh, innovatsion hamda moliyaviy barqaror korxonalar ulushining ortishi jarayoni sifatida talqin etilishi mumkin (3-jadval).

3-jadval. “O‘zbektelekom” AJning xorijiy va tijorat banklari kreditlari⁴ (mlrd. so‘mda)

№	Qarz beruvchi	Qarz olish maqsadi	Olingan kredit summasi	31.12.2024 holatiga qoldiq
1	Tenge Bank	Optik tolali aloqa kabelini sotib olish	0,0186	0,0163
2	Xamkor bank	Xalqaro paketli kommutatsiya markazi va ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini kengaytirish	0,0041	0,0041
3	KDB Uzbekistan	Aylanma mablag'larni to'ldirish	0,0145	0,0137
4	Aloqabank (23 mlrd. \$)	Aylanma mablag'larni to'ldirish	0,0230	–
5	Aloqa bank (valyuta)	Xalqaro paketli kommutatsiya markazi o'tkazuvchanligini kengaytirish	0,0199	–
6	KDB Uzbekistan	Optik tolali aloqa kabelini sotib olish	40,0	40,0
7	Aloqa bank	IT-park binosini qurish	200,0	133,33
8	Ipoteka bank	Optik tolali aloqa kabelini sotib olish	60,0	20,0
9	Ipoteka bank	Aylanma mablag'larni to'ldirish	50,0	25,0
10	Hamkor bank	Aylanma mablag'larni to'ldirish	150,0	–

Mazkur 3-jadval tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning amaliy mexanizmlarini aks ettiradi hamda bank kreditlarining infratuzilmaviy va operatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashdagi rolini ochib beradi. Nazariy jihatdan, telekommunikatsiya tarmog'i kapital sig'imdor, uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiluvchi va yuqori texnologik risklarga ega soha hisoblanadi. Shu bois bank kreditlari mazkur sohani moliyalashtirishning asosiy tashqi manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jadval ma'lumotlari kredit resurslarining uch asosiy yo'nalishga yo'naltirilganini ko'rsatadi: infratuzilmaviy modernizatsiya (optik tolali aloqa kabelini sotib olish, xalqaro paketli kommutatsiya markazini kengaytirish); kapital qurilish loyihalari (IT-park binosini qurish); aylanma mablag'larni to'ldirish. Nazariy jihatdan, infratuzilmaviy loyihalarni kreditlash ko'proq uzoq muddatli investitsion kreditlar shaklida amalga oshiriladi. Masalan, 40 mlrd. so'mlik (KDB Uzbekistan) va 60 mlrd. so'mlik (Ipoteka bank) kreditlar optik tolali aloqa infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu tarmoqning asosiy kapitalini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu turdagi moliyalashtirish banklar tomonidan loyiha samaradorligini baholash, pul oqimlarini prognozlash va risklarni diversifikatsiya qilishni talab etadi.

Eng yirik kreditlar Aloqa bank (200 mlrd. so'm – IT-park qurilishi) hamda Hamkor bank (150 mlrd. so'm – aylanma mablag'lar) tomonidan ajratilgan. Bu holat bank kreditlashida konsentratsiya darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Nazariy nuqtayi nazardan, yirik infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda banklar kredit riskini kamaytirish maqsadida uzoq muddatli va kafolatlangan loyihalarni tanlaydi. Shuningdek, 31.12.2024 holatiga qoldiq summalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim kreditlar (masalan, 40 mlrd. so'm KDB Uzbekistan krediti) to'liq saqlanib qolgan, bu esa kreditning hali asosiy qarzi qaytarish bosqichiga o'tmaganini anglatadi. Boshqa kreditlarda (IT-park qurilishi – 133,33 mlrd. so'm qoldiq) esa bosqichma-bosqich qaytarish jarayoni amalga oshirilmoqda. 3-jadvalda xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar (Aloqabank – 23 mln dollar; Aloqa bank – valyuta krediti) ham mavjud. Nazariy jihatdan, valyuta kreditlari foiz stavkasi nisbatan past bo'lishi mumkin, biroq ular valyuta kursi riskini yuzaga keltiradi. Telekommunikatsiya sohasida daromadlar asosan milliy valyutada shakllanishini inobatga olsak, valyuta risklarini xedjirlash mexanizmlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, tijorat banklari aloqa sohasida nafaqat qisqa muddatli likvidlikni ta'minlovchi institut, balki infratuzilmaviy va innovatsion loyihalarning asosiy moliyaviy hamkori sifatida ishtirok etmoqda. Bank kreditlari orqali optik tarmoqlar, xalqaro uzatish markazlari va IT-infratuzilma obyektlari moliyalashtirilmoqda, bu esa raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. 3-jadval ma'lumotlari tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish nazariyasining asosiy tamoyillarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi: uzoq muddatli infratuzilmaviy kreditlash ustuvorligi; kredit risklarini diversifikatsiya qilish zarurati; valyuta risklarini boshqarish mexanizmlarining ahamiyati; banklar va real sektor o'rtasidagi strategik hamkorlik. Shunday qilib, tijorat banklari kreditlari aloqa sohasining texnologik modernizatsiyasi va investitsion rivojlanishida muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

4 “O‘zbektelekom” AJning sayti ma'lumotlari asosida tuzildi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari aloqa sohasini moliyalashtirishda asosiy moliyaviy institut sifatida faol ishtirok etmoqda. Bank kreditlari, sindikatlashgan kreditlash, lizing operatsiyalari hamda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlari telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, optik tolali tarmoqlarni kengaytirish, xalqaro paketli kommutatsiya markazlarini rivojlantirish va IT-infratuzilma obyektlarini barpo etishda muhim moliyaviy instrument vazifasini bajarmoqda. Nazariy jihatdan, aloqa sohasining yuqori kapital sig'imliligi, uzoq muddatli investitsion sikli va texnologik yangilanish sur'atlarining tezligi banklar kredit siyosatida risk-menejment tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Loyiha moliyalashtirish (project finance), davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta risklarini boshqarish vositalari ushbu sohada samarali moliyalashtirishning asosiy tamoyillari sifatida namoyon bo'ladi. "O'zbektelekom" AJ faoliyati misolida olib borilgan tahlil kompaniya daromadlarining barqaror o'sishini, asosiy operatsion faoliyat ulushining ortishini hamda bank kreditlarining infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Bu esa bank kapitali va real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning chuqurlashayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirishning nazariy asoslari bank tizimi va telekommunikatsiya tarmog'i o'rtasida institutsional hamkorlikni mustahkamlash, infratuzilmaviy investitsiyalarni barqaror moliyaviy ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyotning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan kredit siyosati, samarali risk boshqaruvi va moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 yil.
2. <https://worldbank.org/curated/en/> World Bank — Infrastructure Monitor 2024 (global trends in private infrastructure investment).
3. Yescombe, E.R. (2014). Principles of Project Finance.
4. Gatti, S. (2013). Project Finance in Theory and Practice.
5. Modigliani, F., & Miller, M. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. American Economic Review.
6. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill.
7. Rasulov B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy sektorni rivojlantirish. — Toshkent: Iqtisodiyot.
8. Teshaboyev A. Tijorat banklarida investitsion faoliyat. — Toshkent.
9. Iskandarov M. Moliyaviy vositachilik va bank faoliyati. — Toshkent.
10. Global Internet Index. (2025). World Digital Connectivity Report 2025. Digital Intelligence Institute.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100